



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

KORRUPSIYANI ANGLASH INDEKSI VA BAHOLASH METODOLOGIYASI

Tursunov Axmad Kamilxanovich

O'zbekiston Milliy universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada korrupsiyani anglash indeksi va uni baholash metodologiyasining nazariy-uslubiy asoslari tahlil qilinadi. Transparency International tomonidan qo'llaniladigan indeksning afzalliklari, cheklovlari hamda milliy sharoitga moslashtirish zarurati ochib beriladi. Tadqiqotda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi siyosatni samarali monitoring qilish, korrupsiya darajasini obyektiv o'lchash va baholashning milliy, shaffof hamda standartlashtirilgan tizimini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar asoslanadi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, indeks, metodologiya, baholash, monitoring, Transparency International, shaffoflik, milliy tizim, antikorrupsiya, siyosat.

ИНДЕКС ВОСПРИЯТИЯ КОРРУПЦИИ И МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ

Турсунов Ахмад Камилханович

Национальный университет Узбекистана, исследователь

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методологические основы индекса восприятия коррупции и оценки уровня коррупции. Рассматриваются преимущества и ограничения методологии, применяемой Transparency International, а также обосновывается необходимость её адаптации к национальным условиям. В исследовании предлагаются рекомендации по формированию прозрачной, стандартизированной национальной системы мониторинга антикоррупционной политики и объективной оценки уровня коррупции в Узбекистане.

Ключевые слова: коррупция, индекс, методология, оценка, мониторинг, Transparency International, прозрачность, национальная система, антикоррупция, политика.

CORRUPTION PERCEPTIONS INDEX AND ASSESSMENT METHODOLOGY

Tursunov Axmad Kamilxanovich

National University of Uzbekistan, Researcher

Abstract

The article analyzes the theoretical and methodological foundations of the Corruption Perceptions Index and corruption assessment. It examines the advantages and limitations of the methodology used by Transparency International and substantiates the need to adapt corruption measurement tools to national conditions. The study proposes recommendations for developing a transparent, standardized national system for monitoring anti-corruption policy and objectively assessing corruption levels in Uzbekistan.

Keywords: corruption, index, methodology, assessment, monitoring, Transparency International, transparency, national system, anti-corruption, policy..

Korrupsiya jahon miqyosida jamiyat rivojlanishining deyarli barcha tarixiy bosqichlarida ijtimoiy munosabatlar tizimining ajralmas unsurlaridan biri sifatida shakllanib kelgan. U, bir tomondan, iqtisodiy beqarorlik va inqirozlarning oqibati sifatida, ikkinchi tomondan esa insoniyat ma'naviy hayotidagi yemirilish va qadriyatlar tanazzulining ifodasi sifatida baholanadi. Ayniqsa, hozirgi davrda korrupsiya davlatlararo yashirin iqtisodiy aloqalarning ishlash mexanizmi, shuningdek, shaxslararo manfaatparastlik, favoritizm, proteksionizm hamda nepotizmning kengayishiga xizmat qiluvchi omil sifatida kuchayib bormoqda. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish va takomillashtirish muhim dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Korrupsiya darajasini aniqlash va o'lchash rasmiy iqtisodiy muomaladan resurslarning noqonuniy chiqib ketishini, shuningdek, davlat boshqaruvi tizimidagi zaif va muammoli yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi. Davlat budjetidan yo'qotilgan mablag'lar hajmini hisoblash bilan cheklanib qolmasdan, korrupsiyaga oid ma'lumotlar qonunchilik tizimining sifati, ayrim sohalarida qonunlarga rioya etilish darajasi, davlat siyosatining amaliy samaradorligi kabi boshqaruv jarayonida alohida e'tibor talab qiluvchi masalalar haqida ham muhim axborot beradi.

Korrupsiya holatlari to'g'risida nisbatan ishonchli va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish hukumatga davlat xizmatlarini ko'rsatishdagi tengsizlik, kambag'allik va ijtimoiy chetlanish kabi muammolarni chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, noqonuniy mablag'larni legallashtirish, soliq to'lashdan qochish hamda poraxo'rlikka sharoit yaratadigan moliyaviy tizimdagi bo'shliqlarni aniqlash ham korrupsiyani o'lchash natijalariga bevosita bog'liqdir. Shu asosda davlat yanada samarali siyosiy choralar, huquqiy tartibga solish mexanizmlari va amaliy boshqaruv vositalarini ishlab chiqishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Korrupsiya masalalari respublikamizda Q.R. Abdurasulova, R. Kabulov, B.Dj. Axrarov, R.A. Zufarov, M.H. Rustambayev, P. Bakunov, F. Taxirov, A.G. Zakirova, Sh.Yo. Abduqodirov, N.S. Salayev, U.M. Mirzayev, T.X. Xasanov, H.R. Ochilov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. Shuningdek, korrupsiyaning ma'naviy xatarlari, jamiyat taraqqiyotiga ta'siri masalalari I. Saifnazarov, S. Otamurodov, A. Muzaffarov tadqiqotlarida ham chuqur tahlil etilgan. Mazkur muammo Sh.R. Kobilov, B. Xamidov, faylasuf olimlardan N.A. Shermuhamedova, J.Ya. Yaxshilikov, N.E. Muhammadiyev va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ham muayyan darajada yoritilgan.

Metodologiya

Mazkur muammoning mazmun-mohiyati uni tadqiq etishda tizimli, tarixiy hamda qiyosiy yondashuvlardan foydalanishni zarur etadi. Shu bilan birga, maqolada ilmiy bilish va mantiqiy tahlilga xos bo'lgan bir qator usullar, jumladan, tahlil va sintez, formallashtirish, konseptuallashtirish, tasniflash, abstraksiyalash, umumlashtirish, induksiya, deduksiya hamda analogiya metodlari qo'llanilgan. Tadqiqotning metodologik asoslari tushunish, asoslash, dalillash va xulosa chiqarish orqali ilmiy isbotlash imkonini beruvchi rasmiy mantiq tamoyillariga tayanadi. Xususan, ayniyat, ziddiyatsizlik, istisno qilingan uchinchi holat hamda yetarli asos qonunlari mazkur tadqiqotning muhim mantiqiy-me'yoriy negizini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar

Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan baholarga ko'ra, O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida barqaror va uzoq muddatli ijobiy o'sish sur'atlarini namoyon etayotgan 16 ta mamlakat qatoridan joy olgan. Transparency International xalqaro tashkiloti tomonidan shakllantiriladigan korrupsiyani idrok etish indeksi ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yildan boshlab O'zbekiston ushbu yo'nalishda o'z ko'rsatkichlarini izchil yaxshilab bormoqda. Jumladan, 2019-yilda mamlakat 25 ball bilan 180 ta davlat orasida 153-o'rinni egallagan bo'lsa, 2010-yilda 16 ball bilan 172-o'rinda qayd etilgan edi. Transparency International xalqaro korrupsiyaga qarshi barometrlarning 2016-yilgi natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi respondentlarning faqat 18 foizi pora berganini bildirgan, ularning atigi 23 foizi esa korrupsiyani mamlakatdagi eng jiddiy uch muammodan biri sifatida ko'rsatgan. Aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijasida eng korrupsiyalashgan sohalar sifatida yo'l-patrul xizmati xodimlari qayd etilgan, respondentlarning 17 foizi ularga pora berganini tan olgan. Shuningdek, ta'lim va tibbiyot sohalarida xodimlariga pora berish holatini respondentlarning 16 foizi bildirgan. Korrupsiya holatlari haqida xabar berishga nima to'sqinlik qilishi haqidagi savolga javoban respondentlarning 39 foizi bu borada aniq javobni bilmasligini aytgan, ikkinchi eng ko'p uchragan javob esa "salbiy oqibatlardan qo'rqish" bo'lib, bu ko'rsatkich 17 foizni tashkil etgan.

Jahon banki tomonidan korxonalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovda firmalarning turli bitimlar jarayonida, xususan, soliqlarni to'lash, ruxsatnoma yoki litsenziyalar olish hamda davlat xizmatlariga ulanish kabi olti xil amaliy vaziyatda pora berishga duch kelish ehtimoli baholangan. Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi holat dunyo miqyosidagi, shuningdek, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan ijobiyroq ekanini aniqlangan. Masalan, O'zbekistonda so'rovda qatnashgan firmalarning atigi 6 foizi o'z faoliyati davomida pora talab qilinishi holatiga duch kelganini bildirgan. Holbuki, ushbu ko'rsatkich dunyo bo'yicha 17 foizni, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida esa 11 foizni tashkil etadi.

Jamoatchilik fikrini o'rganishga doir tadqiqotlar asosida "Ijtimoiy fikr" markazi ayrim sohalarida korrupsiya va poraxo'rlik darajasi nisbatan yuqori ekanini aniqlagan. Xususan, fuqarolar fikriga ko'ra, 2018-yilda sog'liqni saqlash va tibbiyot sohasi korrupsiya hamda poraxo'rlikka eng moyil yo'nalish sifatida baholangan. Buni respondentlarning 43,7 foizi qayd etgan. Undan keyingi o'rinlarda ta'lim sohasi 39,4 foiz, soliq sohasi esa 12,2 foiz ko'rsatkich bilan qayd qilingan.

Mazkur markaz tomonidan o'tkazilgan "Jamoatchilik fikri ko'zgusida korrupsiyaga qarshi kurashish" nomli so'rov natijalariga ko'ra, 2018-yilda sog'liqni saqlash tizimi, ishga qabul qilish jarayonlari, oliy ta'lim hamda xalq ta'limi tizimi O'zbekistondagi korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan sohalar

qatoriga kiritilgan. Shundan keyingi o‘rinlarda sud tizimi, prokuratura organlari, Ichki ishlar vazirligi, soliq organlari hamda sanitariya-epidemiologiya nazorati sohasi qayd etilgan.

O‘zbekistonda aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar tahlili davlat korxonalari va muassasalari, ichki ishlar organlari hamda bank tizimi korrupsiyaga nisbatan ko‘proq moyil sohalar ekanini ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishlarning aksariyati aholi so‘rovlari davomida korrupsiya xavfi yuqori deb baholangan sohalar bilan mos keladi. Shu bilan birga, 2013-yildan 2017-yilgacha bo‘lgan davrda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar 43 foizga kamaygani qayd etilgan. Xususan, prokuratura organlari tomonidan 2015–2017-yillar davomida turli korrupsiyaviy jinoyatlar yuzasidan 14 171 nafar shaxsga nisbatan, jumladan, 2015-yilda 6853 nafar, 2016-yilda 4524 nafar, 2017-yilda esa 2794 nafar shaxsga nisbatan ish qo‘zg‘atilgan. Shu davrda jami 8572 ta jinoyat ishi yuritilgan bo‘lib, ularning 3778 tasi 2015-yilga, 2860 tasi 2016-yilga, 1934 tasi esa 2017-yilga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblarida korrupsiya to‘g‘risida quyidagi faktlar keltirilgan: 2020-yilda turli darajadagi mansabdorlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun 1723 shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ular tomonidan yetkazilgan zarar 500 milliard so‘mni tashkil etgan. 2021-yilning besh oyida esa 1696 nafar mansabdorga nisbatan jinoiy ish ochilgan. Yetkazilgan zarar 450 milliard so‘mni tashkil etgan.

Bugungi kunda dunyoda korrupsiya darajasini o‘lchashning beshta asosiy usuli qo‘llaniladi. Mazkur usullarning har biri muayyan kamchilik va afzal jihatlarga ega. Zero, korrupsiya haqida aniq ma‘lumot olish birmuncha murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarning hech biri kimligi ochiq qilinishini istamaydi.

Korrupsiyani idrok etish indeksi mazkur o‘lchov usullari orasida eng keng tarqalgani hisoblanadi. Ushbu usul ekspertlar va aholi o‘rtasida mamlakatda korrupsiya holati to‘g‘risida so‘rov o‘tkazishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, mamlakatlar hamda vaqt oralig‘ida turlicha bo‘lgan jamoatchilik va ekspertlarning fikrlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, taqdim etilayotgan ma‘lumotlarning ochiqligi va sifati, ommaviy axborot vositalarining ta’siri ushbu usulning kamchiligi sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

Korrupsiyani baholash bo‘yicha so‘rov ham uni o‘lchashning keng tarqalgan usullaridan sanaladi. Masalan, Transparency International tashkilotining global korrupsiya barometri va Jahon bankining biznes so‘rovi shular jumlasidandir. U mamlakatning korrupsiya muammolari bilan bog‘liq tajribasi to‘g‘risida firmalar va aholi orasida so‘rov o‘tkazishni nazarda tutadi. Ba’zi respondentlarning davlat organlarida korrupsiya bo‘lishidan manfaatdorligi omilini ushbu usulning kamchiliklaridan biri sifatida ko‘rsatish mumkin. Shuning uchun bunday respondentlar ko‘p hollarda korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar bermaslikni lozim topishlari mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekistonda korrupsiya darajasini baholashning yagona tizimi, xususan, ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi korrupsiya darajasini hisoblashning aniq usullari amaliyotda kam tadqiq etilmoqda. Bu holat korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini shakllantirish va amalga oshirishni qiyinlashtirayotganligi bois bunday tizimni yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, milliy darajadagi korrupsiyani baholash metodologiyasi masalasini hal qilishda asosan ikki yo‘nalish mavjud:

— xalqaro qiyosiy tadqiqotlar natijalarini milliy korrupsiyaga qarshi kurash siyosatiga integratsiyalash;

— milliy sotsiologik (diagnostik) tadqiqotlar o‘tkazish.

Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlar asosida korrupsiyani baholash yondashuvi ham mavjud. Ammo bunday ma‘lumotlar muayyan hududdagi korrupsiya darajasining yaxlit manzarasini ochib berish uchun yetarli emas. Zero, bunday ko‘rinishdagi ma‘lumotlarda faqat sud qarori bilan aniqlangan korrupsion holatlarga nazarda tutiladi.

Ushbu maqolada esa biz xalqaro tajribaga murojaat qilgan holda korrupsiyani idrok etish indeksini yaratishning metodologik kamchiliklarini ko‘rib chiqamiz.

Korrupsiyani idrok etish indeksi (*Corruption Perception Index* — CPI) dunyoda korrupsiyani baholashning eng keng tarqalgan va ko‘p murojaat qilinadigan usuli bo‘lib, u turli mamlakatlarning davlat sektorida korrupsiyani idrok etish darajasini o‘lchaydigan yillik umumlashtirilgan hisobot hisoblanadi. Ushbu indeks Transparency International xalqaro tashkiloti tomonidan ekspertlar va ishbilarmon doiralar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar asosida tuziladi.

Mamlakat *Corruption Perception Index*ga kiritilishi uchun kamida uchta ma‘lumot manbai mavjud bo‘lishi kerak. Har qanday umumiy ma‘lumot beruvchi tashkilot emas, balki davlat boshqaruvi

yoki biznes muhitini tahlil qiluvchi mustaqil ekspert tashkilotlari axborot manbai hisoblanadi. *Transparency International* tashkiloti ekspertlari har bir axborot manbaining sifat standartlariga mos kelishiga ishonch hosil qilish maqsadida ularning metodologiyasini baholaydilar. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, dunyo mamlakatlari 0 dan 100 ballgacha bo'lgan shkala asosida baholanadi. Bunda 0 — korrupsiyani idrok etishning eng yuqori darajasini, 100 esa eng past darajasini bildiradi.

Korrupsiyani idrok etish indeksi dunyo miqyosida 1995-yildan buyon muntazam ravishda har yili hisoblab chiqilib, e'lon qilinib kelinmoqda. *Transparency International* tashkilotining maqsadi barcha davlatlarda hokimiyatning shaffofligi va xalq oldidagi hisobdorligini oshirishdan iborat. Tashkilot ekspertlarining fikriga ko'ra, har qanday faoliyatning shaffofligi jamiyatning kamroq korrupsiyalashuviga olib keladi va bu hodisaga qarshi kurashni sezilarli darajada yengillashtiradi.

Keling, asl manbaga murojaat qilgan holda, 2020-yildagi *Corruption Perception Index*ga oid qisqa metodologik ma'lumotnomani ko'rib chiqaylik. *Corruption Perception Index* davlat sektoridagi korrupsiya darajasini tegishli mamlakat bo'yicha tadbirkorlar va ekspertlar nuqtai nazaridan talqin qiluvchi turli manbalardan olingan ma'lumotlarni umumlashtiradi.

Korrupsiyani idrok etish indeksini hisoblash jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Axborot manbalarini tanlash

Korrupsiyani idrok etish indeksini tuzishda foydalaniladigan har bir ma'lumot manbai ishonchli deb hisoblanishi uchun quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- davlat sektoridagi korrupsiyani idrok etish darajasining miqdoriy ko'rsatkichlarda taqdim etilishi;
- turli mamlakatlarni yagona shkala asosida reytinglash imkonini beruvchi ishonchli metodologiya mavjudligi;
- reytingning doimiy ravishda ishonch qozongan tashkilotlar tomonidan tuzilishi;
- alohida mamlakatlar pozitsiyalari o'rtasidagi farqni ko'rsatish imkonini beruvchi keng baholash shkalasidan foydalanilishi;
- tadqiqot obyektida o'rganish uchun yetarli miqdorda mamlakatlarning qamrab olinishi;
- baholarning muayyan davlat bo'yicha mutaxassis yoki tadbirkor tomonidan berilishi;
- reytinglarni e'lon qiluvchi tashkilotning kamida har ikki yilda bir marta qayta baholanishi.

2020-yil uchun *Corruption Perception Index* 12 turdagi tashkilot tomonidan taqdim etilgan 13 xil ma'lumot manbasi asosida hisoblab chiqilgan bo'lib, ularda so'nggi ikki yil ichidagi korrupsiyani idrok etishga oid ma'lumotlar qayd etilgan.

2. Axborot manbalarini standartlashtirish

Standartlashtirish 0 dan 100 gacha bo'lgan shkala asosida amalga oshiriladi. Bu yerda 0 — korrupsiyaning juda yuqori darajasi, 100 esa juda past darajasini anglatadi.

Mazkur standartlashtirish har bir manbaning arifmetik o'rtacha qiymatini dastlabki yilda har bir mamlakat tomonidan olingan balldan ayirish va keyin joriy yilda ushbu manba doirasidagi o'rtacha kvadratik og'ish qiymatiga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Shundan so'ng normallashtirilgan natijalar 2012-yildagi *Corruption Perception Index*ning o'rtacha kvadratik og'ishi va o'rtacha arifmetik qiymati asosida umumiy CPI shkalasiga moslashtiriladi. Natijada barcha ma'lumotlar 0 dan 100 gacha bo'lgan yagona *Corruption Perception Index* shkalasida ifodalanadi.

3. O'rtacha qiymatni hisoblash

Mamlakat yoki hudud *Corruption Perception Index*ga kiritilishi uchun uni baholovchi kamida uchta manba mavjud bo'lishi kerak. Tegishli mamlakat uchun CPI bali ushbu mamlakatga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan barcha standartlashtirilgan baholarning o'rtacha qiymati sifatida hisoblanadi. Yakuniy ballar butun songa yaxlitlanadi.

4. Noaniqlik darajasi haqida hisobot

*Corruption Perception Index*ni tuzishda kvadratik xatolik miqdori va mamlakat reyting ko'rsatkichining ishonch oralig'i ham ko'rsatiladi. Bu esa o'z navbatida muayyan mamlakat yoki hudud uchun mavjud axborot manbalari tomonidan taqdim etilgan natijalar o'rtasidagi tafovutlarni aks ettiradi.

Korrupsiyani idrok etish indeksini ishlab chiqishning muhim metodologik muammolari mavjud bo'lib, ular ushbu indeksdan O'zbekistondagi korrupsion holatni integral baholash vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini shubha ostiga qo'yadi. Chunki bir necha yillar davomida korrupsiya darajasini aniq ko'rsatuvchi ochiq manbalar bo'lmaganligi sababli O'zbekiston korrupsiya darajasi eng yuqori davlatlar qatorida bo'lib kelgan.

1. Individual indekslarni aniqlash muammosi. Yakuniy *Corruption Perception Index*ni

yaratish texnologiyasi juda shaffof, ammo individual indekslarni aniqlash paytida korrupsiyaning turli jihatlarini aniq ko'rsatish mexanizmlarida nomukammalliklar mavjud. Korrupsiyaning individual ko'rsatkichlarini shakllantirish manbalari haqida ishonchli ma'lumot olish imkoniyati birmuncha cheklangan. Ba'zan korrupsiyaning individual ko'rsatkichi nima bilan o'lganishi va u nimaga asoslanganligini aniq tushuntirish imkonsiz. Shundan kelib chiqqan holda, integral indeksning ishonchli va asoslangan ekanligini tan olish murakkab masala hisoblanadi.

2. Respondentlarning toifalarini tanlashdagi cheklanganlik. Korrupsiyani idrok etish indeksi tadqiqot olib borilayotgan mamlakatda yashovchi mutaxassislar, shuningdek, dunyoning turli mamlakatlaridagi tadbirkorlar va tahlilchilardan olingan so'rov natijalariga ko'ra shakllanadi. Tadqiqotda aholidan olinadigan so'rov natijalari istisno qilinadi. Bizning fikrimizcha, bu to'plangan ma'lumotlarning to'liqligini cheklaydi va shunga ko'ra, korrupsiya ko'rsatkichlari indeksining o'zgarishiga sabab bo'ladi, chunki korrupsiya miqdori va darajasida korrupsion hodisalar bilan bevosita aloqada bo'lgan aholining haqiqiy tajribasi hisobga olinmaydi. Shuningdek, bu muammo boshqa tadqiqot tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ekspert tadqiqotlari natijalarini jalb qilish bilan ham bog'liq. *Transparency International* tomonidan indeksni yaratishda foydalanilgan har bir tadqiqot o'z metodologiyasiga, korrupsiya borasidagi o'z ta'rifiga, uning shakllari va darajasini baholash mezonlarini tushunishga oid o'z talqiniga, integral ko'rsatkichlarni hisoblashning o'ziga xos tartibiga ega. Bundan tashqari, ekspertlarni tanlab olish va ularning miqdori subyektiv omilning rolini oshirgan holda, shubhasiz, muayyan mamlakatda korrupsiyani baholash natijasiga ta'sir ko'rsatadi.

3. Korrupsiya tushunchasining bir ma'noli ta'rifi mavjud emasligi muammosi. *Transparency International* korrupsiyaning mazmuni turlicha tushuniladigan bir qator ijtimoiy so'rovlardan foydalanib, muayyan vaqt ichidagi o'rtacha ma'lumotlarga asoslangan holda korrupsiyani idrok etish indeksini ishlab chiqadi. Bu shuni anglatadiki, korrupsiyani idrok etish indeksini hisoblashda turli baholash metodologiyalaridan foydalangan holda olingan, korrupsiyaning turli talqinlari va uning namoyon bo'lish shakllari bilan bog'liq korrupsiya ko'rsatkichlari nazarda tutiladi. Bundan tashqari, bu muammo turli toifadagi respondentlarni tanlab olish, turli xil tadqiqot vositalarini qo'llash, korrupsiyani o'lchashning turli shkalalaridan foydalanish bilan bog'liq tarzda ham namoyon bo'ladi.

4. Ko'rsatkichlarning muvofiqligi. Korrupsiyani idrok etish indeksini aniqlashda turli xil individual korrupsion ko'rsatkichlarni birlashtirishning to'g'riligi turli tadqiqotlar natijalariga ko'ra aniqlangan korrupsiya baholari o'rtasida yuqori darajadagi korrelyatsiya mavjudligi bilan izohlanadi. Korrupsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatlar qanchalik yuqori bo'lsa, turli tadqiqotlar natijalari shunchalik muvofiqlashadi va shunga ko'ra, korrupsiyani idrok etish indeksi yanada ishonchli o'lganadi. Ma'lumotlarning ishonchligi yuqori darajadagi korrelyatsiya bilan birga standart ko'rsatkichlar xatolik darajasining pastligidan dalolat beradi. Ammo bu mulohaza korrupsiya ko'rsatkichlarining turli baholarini olish manbalari mustaqil bo'lgandagina to'laonli amal qiladi. Masalaning mohiyati shundaki, turli ekspert guruhlar ko'pincha o'z hisob-kitoblarini boshqa ekspertlarning baholashlari asosida ishlab chiqib, hatto bir xil ko'rsatkichlar bahosining bir xil manbasidan foydalanadilar. Shuningdek, o'zlarining shaxsiy baholarini ishlab chiqishda korrupsiyani idrok etish indeksining darajasiga ham e'tibor berishadi. Hatto shunday holatlar ham bo'ladi, unda bir necha ekspert guruhining mutaxassisi bo'lgan ekspertlar korrupsiya ko'rsatkichini baholash jarayoniga jalb qilinadi. Tabiiyki, bu ham baholash jarayonidagi obyektivlikni kamaytirgan holda xatolikning oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

5. Muayyan vaqt mobaynidagi o'zgarishlarni kuzatib borish. 2012-yilga qadar korrupsiyani idrok etish indeksini hisoblash metodologiyasi mamlakatning yangi ko'rsatkichini avvalgi ko'rsatkichlar bilan taqqoslashni nazarda tutmas edi. 2012-yildan keyin *Transparency International* hisoblash metodologiyasini yangilagach, ko'rsatkichlarni yillar kesimida tahlil qilish imkoni yuzaga keldi. Shunga qaramay, yangi metodologiya ham ayrim muammolardan xoli emas. Korrupsiyani idrok etish indeksini yaratishning mazkur metodologiyasi o'tgan uch yil mobaynida amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini birlashtirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, har bir alohida yil uchun so'rov natijalari turli metodologiyalar bo'yicha korrupsiyaning turli ko'rsatkichlariga asoslangan holda turli tashkilotlar tomonidan to'planadi va bu har doim ham faqat bir xil tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lmaydi. Shu sababli korrupsiyani idrok etish indeksini tashkil qiluvchi individual korrupsiya indekslarini hosil qilishdagi ma'lumotlar manbalarining o'zgarishi tabiiy ravishda umumiy korrupsiyani idrok etish indeksining o'zgarishiga ham olib keladi. Natijada esa turli yillar va mamlakatlar o'rtasidagi ko'rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish murakkablashadi. Boshqacha qilib aytganda, korrupsiya indeksini aniqlashning mazkur yondashuvi dinamik korrupsiya ko'rsatkichlari hamda korrupsiya borasidagi

o'zgarishlar tendensiyalarini nazardan soqit qiladi. Yildan yilga ballarning o'zgarib borishi korrupsiya bo'yicha real vaziyatning ham o'zgarganligini anglatmaydi. Mamlakatning korrupsiya borasidagi ko'rsatkichlarining o'zgarib turishi nafaqat korrupsiya darajasi haqidagi tasavvurlarning, balki tanlash usullari va metodologiyaning o'zgarishi bilan ham izohlanadi.

6. Mamlakatlarni qamrab olishni tartibga solish tamoyillarining ta'siri. Ma'lumki, odatda korrupsiyani idrok etish indeksi hisoblanadigan mamlakatlar reytingining tarkibi o'zgarib turadi. *Transparency International* reytingiga yangi davlatlarni qo'shish va turli vaqtlarda boshqa mamlakatlarni chiqarish reyting jadvali chegaralarining kengayishi yoki torayishiga olib keladi. Bu bir mamlakatning bir necha yillar mobaynidagi reytingdagi o'rining o'zgarishi bilan bog'liq xatolikka sabab bo'ladi. Natijada esa nafaqat korrupsiyani idrok etish indeksi qiymatini, balki mamlakatlarning reytingdagi o'rinlarini ham vaqt kesimida qiyosiy tahlil qilish murakkablashadi. Shu ma'noda, reytingdagi mamlakat o'rining o'zgarishi undagi korrupsiya darajasining oshganligi yoki kamayganligini anglatmaydi. Mamlakatning reytingdagi o'rni *Corruption Perception Index* reytingini ishlab chiqishdagi mamlakatlar miqdorining o'zgarishiga ham bog'liq.

7. Ko'rsatkichlar jamlanmasining bir xilligi. *Corruption Perception Index* ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatni *Transparency International* reytingiga kiritish korrupsiya to'g'risidagi ma'lumotlarning kamida uchta ishonchli manbaga asoslanishini talab qiladi. Shu bilan birga, *Transparency International* reytingiga kiruvchi mamlakatning umumiy korrupsiyani idrok etish indeksini aniqlashda cheklanmagan miqdordagi tadqiqotlar natijalariga murojaat qilinishi mumkin. Tabiiy ravishda, minimal darajadagi uchta manbaga asoslanib o'lchangan korrupsiyani idrok etish indeksiga nisbatan ayni indeksning ko'plab manbalarga tayanib o'lchanishi ishonchliroq hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, ma'lumotlar jamlanmasining bir xilligi bilan bog'liq.

8. Milliy xususiyatlarni hisobga olish. Korrupsiyani idrok etish indeksini hisoblashda korrupsiya hodisasining milliy xususiyatlari hisobga olinmaganligi tufayli ularning mamlakatdagi umumiy korrupsiyani idrok etish indeksi darajasiga ta'siri nazardan chetda qoladi. Ma'lum bir guruh mamlakatlar uchun yuqori korrelyatsiyani ko'rsatadigan ma'lumotlarga asoslangan holda hisoblangan indekslar ular uchun juda muhimdir.

Xulosa va tavsiyalar

Demak, mazkur indeksni shakllantirish yoki muayyan davlatning xalqaro reytingdagi o'rini aniqlash jarayonida barcha mamlakatlar uchun birdek qo'llanilishi mumkin bo'lgan yagona va universal metodologiya mavjud emasligi ko'zga tashlanadi. Biroq bu holat korrupsiya darajasini aniqlash va baholashga qaratilgan milliy tizimni yaratish mumkin emas, degan xulosani anglatmaydi. Aksincha, yuqorida qayd etilgan metodologik cheklov va kamchiliklarni inobatga olgan holda, korrupsiyani baholash tizimini takomillashtirish yuzasidan bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin.

1. Korrupsiya darajasini o'lchash hamda baholashga xizmat qiluvchi milliy tizimning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mamlakatdagi korrupsiya holati, korrupsiyaga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning natijalarini aks ettiruvchi yillik hisobotlarni tayyorlash vakolatiga ega davlat organlarining funksional vakolatlarini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, bunday axborotlar korrupsiyaning shakllari, subyektlari va ishtirokchilariga doir qonuniy ta'riflarga tayangan holda, yagona metodologiya asosida to'plangan taqdirdagina ishonchli va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

2. Korrupsiyaning real holatini aniqlashga imkon beruvchi o'lchov vositalarini ishlab chiqish orqali mazkur muammoni mafkuraviy bosim, siyosiy manfaatlar va manipulyativ talqinlar doirasidan chiqarish lozim. Bu, o'z navbatida, ommaviy axborot vositalari hamda siyosiy targ'ibot orqali jamoatchilik ongida korrupsiya haqida biryoqlama tasavvurlar, stereotiplar va ommaviy miflarning shakllanishiga chek qo'yishga xizmat qiladi.

3. Korrupsiya darajasini tadqiq etishda "o'lchash" va "baholash" tushunchalarini metodologik jihatdan aniq farqlash zarur. Korrupsiyani o'lchash deganda ijtimoiy ko'rsatkichlar, indekslar va statistik indikatorlar yordamida uning miqdoriy yoki sifat jihatlarini aniqlash tushuniladi. Baholash esa olingan o'lchov natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish, ularga ilmiy izoh berish hamda korrupsiya holati yuzasidan tegishli xulosalar ishlab chiqish jarayonini anglatadi.

4. Korrupsiyani tavsiflash jarayoni bir necha darajadagi pozitsiyalar asosida amalga oshirilishi lozim. Xususan, korrupsiya mamlakatlararo munosabatlar darajasida, alohida davlat miqyosida, shuningdek, mamlakat ichidagi ijtimoiy hayotning turli sohalari kesimida alohida-alohida o'rganilishi kerak. Boshqacha aytganda, korrupsiyani global, davlat va mahalliy darajadagi ko'rinishlarga ajratgan

holda tasniflash metodologik jihatdan muhimdir.

5. Korrupsiyani baholashning asosiy modellari sifatida bir necha yo‘nalishlarni ajratish mumkin. Bular, avvalo, korrupsiyaning real holatini aniqlash, aholining korrupsiyani qanday darajada anglayotganini o‘rganish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va natijadorligini baholashdan iborat bo‘lishi mumkin.

6. Korrupsiyani o‘lchash metodikasi imkon qadar shaffof, tushunarli va jamoatchilik uchun ochiq bo‘lishi zarur. Bunday yondashuv nafaqat metodik vositalarni unifikatsiyalash va standartlashtirishga yordam beradi, balki korrupsiyaga qarshi davlat siyosatiga nisbatan ijtimoiy ishonchni kuchaytiradi. Shu bilan birga, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining mazkur yo‘nalishdagi faoliyatini o‘zaro uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

7. Korrupsiyaning holati, uning asosiy ko‘rsatkichlari va aniqlash usullariga oid ma’lumotlar sifati davlat boshqaruvining boshqa sohalarida qo‘llaniladigan axborot standartlariga imkon qadar yaqin bo‘lishi kerak. Ya’ni korrupsiyaga oid axborotlar aniqlik, tekshiriluvchanlik, qiyosiylik, tizimlilik va amaliy foydalanish imkoniyati kabi mezonlarga javob berishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya darajasini baholashning milliy tizimi korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat boshqaruvining muhim vositasi sifatida ishlab chiqilishi zarur. Bunday tizim qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborot bazasini shakllantiradi, qabul qilingan chora-tadbirlarning samaradorligi va natijadorligini baholash imkonini beradi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hokimiyat institutlari va jamiyat mamlakatdagi korrupsiyaga oid real vaziyat haqida ishonchli ma’lumotga ega bo‘lgan sharoitda korrupsiyaga qarshi siyosatning belgilangan maqsadlarini amalda ro‘yobga chiqarish, uning ko‘lamini qisqartirish hamda bu borada ijobiy o‘zgarishlarga erishish imkoniyati sezilarli darajada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qobilov Sh.R. Milliy xavfsizlikning iqtisodiy muammolari: monografiya. — T., 2006
2. Бахтишод Хамидов. Экономическое обозрение. — 2020. — № 4 (244). — URL: review.uz
3. Shermuxamedova N.A. Korrupsiyaning turlari va shakllari // Формирование антикоррупционной культуры в Республике Казахстан и в странах Центральной Азии: состояние, тенденции и перспективы развития, посвящается 20-летию факультета юриспруденции МО ЮКГУ. — Shymkent, 2018. — S. 67.
4. Yaxshilikov J., Muhammadiev N.E. Milliy g‘oya — taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: Fan, 2017. — 322 b.
5. URL: review.uz
6. URL: yuz.uz
7. URL: transparency.org.ru